



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



ISSN 2181-2675    www.ijournal.uz

## USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN ENGLISH TEACHING

Ibodullayeva Ozoda Rustamovna<sup>1</sup>

*School No. 11, Urganch city, Khorezm region*

---

### KEYWORDS

language, English, technology, method, education, student, education, lesson

---

### ABSTRACT

This article analyzes modern methods and technologies of English language teaching, various games and methods are given in the article. Tasks that increase the effectiveness of language teaching have been given.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7082621

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Teacher of English language and literature, School No. 11, Urganch city, Khorezm region, UZB

# INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI

**KALIT SO'ZLAR:**

til, ingliz tili, texnologiya,  
metod, ta'lif, o'quvchi,  
ta'lif, dars

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ingliz tili o'qitishning zamonaviy metodlari, texnologiyalar tahlil etilgan bo'lib, maqolada turli o'yinlar va metodlar berilgan. Til o'rgatish samaradorligini oshiruvchi vazifalar berib ketilgan.

Har bir o'qituvchi ingliz tili o'qitish jarayonida ta'lif oluvchilarnung shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va uni egallahsga sharoit yaratadi. Til o'rganish asosida o'quvchi, talabalarda fanni o'rganib ingliz tilining grammatikasini bilgan holda erkin muloqot qilishi, mustaqil holatda fikr bildira olishi, tafakkur qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ingliz tili darslarini ilg'or zamonaviy usullar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llab darsni tashkil qilish ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda, og'zaki va yozma nutqini o'stirishda o'rni salmoqli sanaladi. O'quvchi yoshlarga ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ulardagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, qo'llab-quvvatlash ishlarini olib borish bu tilni tezroq o'rganishga yordam beradi.

Ilg'or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar o'quvchi-yoshlarning yuqori darajada bilimli, keng darajada yuqori malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuni aytish lozimki, o'quvchilar ingliz tilini o'rganishlari uchun bu tilning grammatikasi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi uchun ular, avvalo, o'z ona tilisining grammatikasini yetarli darajada bilishi va jonli nutqda to'liq rioya qilishi bilan xarakterlanadi. Xususan, o'quvchilar nutqida faol bo'lgan leksik birliklardan biri bu olmosh sanaladi. Dastavval, olmosh haqida ona tili grammatikasidagi bilim, ko'nikmalar hosil qilingan bo'lsa, ingliz tilida shu mavzuni oson tushunib yetadi.

Ingliz tili darslari davomida ba'zi o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi. Aynan shu sababli ya'ni o'rganuvchining ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish o'rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Zero, o'rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari albatta samara beradi. Aksinchal, biz o'qituvchilar ushbu talablar asosida o'quv materiallarini tanlamasak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab so'zlardan iborat bo'lgan video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki multimedia, komputerlar orqali namoyish etsak, o'rta va yuqori sinf yoki guruh o'rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat o'quv materiallarini namoyish etganimizda o'rganuvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'na boshlaydi va darslarni o'zlashtirmay qo'yishadi. Bu esa o'z navbatida baholarning pasayib ketishi, o'qituvchining o'quvchilar oldida o'z hurmatini

yo`qotib qo`yishga olib kelishi mumkin.

Demak, bundan kelib chiqadiki dars davomida texnologiyalardan shunchaki foydalish emas, balki ularni o`z o`rnida qo`llay bilish va texnologiyalardan foydalanish o`quvchi bilimini oshirishga xizmat qilishini ta`minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi CEFR ya`ni Xalqaro Yevropa ta`lim standartlarining talablari bo`yicha to`rtta: (writing, reading, listening, speaking) ingliz tilida yozib, o`qib, tinglab, so`zlashib o`rganish kompitensiyalari bo`yicha olib borilayotgan darslar davomida texnologiyalardan unumli va o`rinli foydalanish ahamiatlidir. Masalan, tinglab – tushunish darslarida audio matnlarni qo`yib eshittirishning ham o`ziga yarasha qonun-qoidalari mavjud. Unda asosiy maqsad o`rganuvchi eshitayotgan audio materialni tushunib olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishi muhimdir. Buning uchun esa eng avvalo, muhitni audio materialni qo`yib eshittirish uchun hozirlash, bunda tinglovchilar osoyishta muhitni ta`minlashlari, o`qituvchi esa qo`yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning yaxshi ishlayotganligiga e`tibor qaratishi va audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlarning tayyor ekanligi va o`rganuvchilar tarqatma materiallar bilan ta`minlangan bo`lishi lozim. Qo`yilgan barcha talablar amalga oshirilgach, o`qituvchi audio materialni o`rganuvchilarga qo`yib eshittirishni boshlashi mumkin. Eshittiruv kamida ikki marta amalga oshiriladi aks holda til o`rganuvchilar mavzuni tushunmasliklari va audio material eshit bo`lingach bajariladigan mashqlarni to`g`ri bajara olmasliklari mumkin.

Ingliz tilini o`rgatishning o`rta etapida asosiy e`tibor ko`proq hajmdagi matnlarni o`qib tushunishda fikrlashni, nutq faoliyatini, tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan usullardan foydalanish kerak. O`quvchilarga uy vazifasi sifatida matnlar berib boriladi. Matnni tushunganligini tekshirishga mo`ljallangan mashqlar berilib ular quyidagicha ifoda etilishi mumkin:

Answer the question on the text Samarkand:

Why Samarkand is called like this?

Where is the ancient centre of the city?

How many population is there?

Savol - javob mashqlaridan foydalangan holda o`quvchi nutqini kuchaytirish, xotirasini yaxshilash, takrorlash natijalariga erishiladi. Matnlar ichidan chiqqan yangi so`zlar yod olinadi. Savol-javob qilish natijasida o`sha so`zlarning xotirada takrorlanishi hamda nutqda qo`llay bilish ko`nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari darslarda turli xil o`yinlarni tashkil etish o`quvchini til o`rganishga bo`lgan qiziqishini orttirib, o`rganish sur`atini oshiradi. "Hot ball" o`yinida o`quvchilar aylana bo`lib oladilar, koptokni bir-birlariga yangi so`zlardan birini aytib otadilar. Ishtirokchilar bir-birlarining aytgan so`zlarini takrorlamaydi, takrorlagan yoki so`z ayta olmay to`xtab qolgan holda o`yindan chiqariladi. Shu tarzda o`yin davom ettiriladi.

Pictionary - ko`pchilik ingliz tili fanini o`rgatuvchi va o`rganuvchilar uchun bu o`yin tanishdir, ya`ni o`z nomi bilan so`z o`yini va unda rasm chiziladi. Bu o`yinda rasm chizish uchun oddiy doskadan yoki magnit doskadan foydalanish mumkin. Sinf o`quvchilari ikki guruhga bo`linadilar va har bir jamoa uchun doskaning ikki tarafiga jadval chiziladi.

Jamoalarning ballari shu jadvallarga yozib boriladi. Parta ustiga so'z nomlari yozib qo'yiladi va teskari qilib o'giriladi. Har bir guruhdan o'quvchilar navbatma-navbat chiqib, yashiringan so'zlar orasidan birini tanlab, doskaga chizib beradi. Qaysi jamoa birinchi topsa shu jamoaga ball beriladi. Bu o'yin ham o'quvchilar zehnini charxlaydi. Shuni ham ayta olamizki, rasmlardan foydalanish - o'quvchilarni tez jalb qiluvchi taktikadir, ayniqsa, u o'quvchilarning o'zi tomonidan yaratilgan bo'lsa.

Taboo words o'yini (Ta'qiqlangan so'zlar) - bu qiziqarli o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so'zlashuvning chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar, gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. Aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyyotkor bo'lishga yordam beradi. Bunda guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni ayttirish uchun biroz vaqt bo'ladi.

**"FIKRIY HUJUM" METODI.** Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqli.

O'yinlar va metodlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirishimiz mumkin. Ushbu yuqorida keltirilga o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmunli tashkil qilishdir. Bugungi kunda ta'lim jarayoni asosan an'anaviy tarzda olib borilayotgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini uzluksiz o'rganishni tashki qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyalari bilan ta'lim berishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni shu o'rganayotgan tillarining mutaxasisi bulishi va buning negzida ular shu tillarda bemalol so'zlash olishlari maqsadga muvofiqli.

Zero, barchasi yoshlarimizning buyuk kelajagi, yurtimiz ravnaqi uchundir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Brandvik, M. L., & McKnight, K. S. *The English Teacher's Survival Guide: ReadyTo-Use Techniques and Materials for Grades 7-12.* Jossey-Bass. [4] [2] Sandford R, Ulicsak M, Facer K and Rudd T "Using commercial off-the-shelf computer. games in formal education."
2. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). *Network-based Language Teaching: Concepts and Practice,* Cambridge: Cambridge University Press.
3. D. B. Muminova., D. I. Normatova Nofilologik institut talabalari uchun ingliz tili grammatikasidan uslubiy qo'llanma.- Toshkent 2016.